

FUQAROLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINING
TA'MINLANGANLIK DARAJASI

Ozodova Marxabo Beymamat kizi

Toshkent viloyati yuridik texnikum 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakat boyligi tabiiy resurslar bilan emas, balki shu millat odamlari bilan belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada Inson taraqqiyoti uning demokratik tamoyillari, mamlakatimizda inson taraqqiyotini ta'minlash va uning demokratik me'yorlarga mosligi qisqacha tushuntirilib berilgan. Undan tashqari fuqarolar huquqining bosh tayanchi bo'lgan Konstitutsiya va unda inson huquqlari va erkinliklarining kafolati, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikning amalda qo'llanilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy erkinliklar bilan birgalikda fuqarolarning fuqaro sifatidagi burch va majburiyatlari to'g'risida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Qonun, Huquq, Erkinlik, Burch, Majburiyat.

KIRISH: Insoniyat jamiyati uzining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida moddiy madaniyat bilan bir qatorda o'zining ma'naviy hayotini ham boyitib bordi. Insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy madaniyatning katta qismini huquq va majburiyatlarni kafolatlab yoki belgilab beruvchi qonunlar tashkil qiladi. Tarixning uzluksiz rivojlanish bosqichlarida jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotini tartibga soluvchi ma'lum bir me'yoriy qoidalarga ehtiyoj sezila boshlandi¹. Dastlab og'zakilikka yoxud urf- odat va an'analarga asoslangan turmush tarzi endilikda yozma qonunlarga asoslana boshladi. Shu tariqa yozma qonunchilik yuzaga kela boshladi. Davlatchilikning taraqqiy etishi esa qonunchilik tizimi taraqqiyotini yanada yuksaltirib, jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan asosiy qonunlar to'plami bo'lgan konstitutsiyalarni paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Prezidentimiz takidlaganidek yillar o'tgan sayin xalqimiz Konstitutsiyamizning ahamiyatini va mohiyatini, hayotimizda tutgan o'rni va tasirini yanada chuqurroq tushunib bormoqda. Haqiqatdan ham, 8-dekabr - Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunni katta ijtimoiy siyosiy ahamiyatga molik voqea sifatida keng nishonlash hayotimizga chuqur kirib bormoqda. Ushbu qutlug' sana umumxalq bayramimiz qatoridan munosib joy olib, yurtimizda yashayotgan har qaysi fuqaro, har qaysi oila taqdirida, ularning bugungi hayoti, ertangi kelajagini, inson huquq va erkinliklarini taminlashda Konstitutsiyaning beqiyos o'rni, ahamiyati va ta'sirini yana bir bor eslash va tasavvur qilishga undaydi. Mana chorak asrdiki, biz eski tuzum asoratlaridan

¹ Boyto'raev T. D. Insonparvarlik va ma'naviy qadriyat haqida ba'zi mulohazalar. T., 2011.

milliy tabiyatimizga yot va begona bo'lgan mafkuraviy qarashlardan voz kechib o'zimiz ko'zlagan yangi hayot, yangi jamiyat qurish uning konstitutsiyaviy asoslari va tamoyillarini belgilab olishda ish olib bormoqdamiz². Ana shu o'tgan davr mobaynida xalqimiz siyosiy tafakkuri, aql zakovatining ko'zgusi bo'lmish Konstitutsiyamizning hayotiy negizi naqadar mustahkam ekanligi, u bizning milliy qadriyatlarimiz va ayni paytda umuminsoniy talablarga har tomonlama mos kelishiga takror va takror ichonch hosil qilishimiz zarur. Xalqimiz inson huquqlari va davlat suveriniteti g'oyalariga sodiqligini e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak ma'suliyatini anglagan holda davlatchiligimiz rivojini tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon etib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarning ustunligini tan olib, fuqarolarimizning munosib hayot kechirishlarini taminlashga intilib, insonparvar, demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini taminlashga intilib, muxtor vakillar siyosida qabul qilingan birinchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mana bugun 29 yoshini qoraladi. Xalq tili bilan aytganda bir navqiron yigit yoshidir bu. Mazkur Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qa'ti nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi. Hamma ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart deb Konstitutsiyamizning 18 moddasida qa'tiy belgilab qo'yilgan³.

Inson salohiyatining to'la amalga oshirilishi faqat moddiy farovonlikka bog'liq emas. Inson o'zi va yaqinlari uchun fundamental ehtiyojlarini qondirish uchun zarur moddiy asoslarga ega bo'lish bilan birga, jamiyat siyosiy hayotida faol ishtirok etishi, ma'naviy-madaniy jihatdan mazmunli hayot kechirishi, o'z ruhiy erkinligini his etib yashashi zarur. Bir so'z bilan aytganda, insonning jamiyat hayotidagi o'rni umuminsoniy qadriyatlarga, xalqaro andozalarga mos bo'lishi kerak. Bugungi kunda ana shu poydevorga qo'yilgan insonning taraqqiyoti avvalo inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq.

O'zbekistonda mustaqillik davrida sud-huquq tizimini isloh qilish, insonparvarlik, demokratiya qadriyatlarini barqaror joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini sudda himoya qilish imkoniyatlari oshib bormoqda. O'zbekiston parlamenti ratifikatsiya qilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat ham Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bo'lganligi bejiz emas. Mamlakatimizda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, Inson huquqlari bo'yicha milliy markazning faoliyat yuritib kelayotganligi ham inson huquqlari va erkinliklariga bo'lgan katta e'tibor namunasidir.

² Yusupov E. Inson Kamolotining ma'naviy asoslari. T., "Universitet", 2018.

³ H.B. Boboyev. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma, T., "O'zbekiston", 2017

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, biz tinch- totuv yashab turgan kunimizga, yurtimizning tinchligi, osmonimizning musaffoligi, ustimiz but, qornimizning to'qligiga, keksalarimiz ezozlanib qadrlanib kelinayotganiga, yoshlarimizga berilayotgan imkoniyatlardan shukronalik ruhi bilan yashashimiz zarur. Demak, Konstitutsiyamiz, bosh qomusimiz jamiyatimiz taraqqiyoti va yurtimiz tinchligi xalqimiz faravonligi yolida xizmat qilib kelmoqda. O'zbekistonda mustaqillik yillarida inson taraqqiyoti sohasida qo'lga kiritilgan realnatijalar salmoqlidir. Ular haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina aholi turmush sharoiti va tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash natijasida mamlakatimizda umumiy o'lim ko'rsatkichi keyingi 10 yilda qariyb 20 foizga kamayganining o'zi fikrimizga dalil bo'la oladi. Shu faktning o'ziyoq mamlakatimizda inson taraqqiyoti uchun mustahkam asos barpo etilganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
2. Boyto'raev T. D. Insonparvarlik va ma'naviy qadriyat haqida ba'zi mulohazalar. T., 2011.
3. Yusupov E. Inson Kamolotining ma'naviy asoslari. T., "Universitet", 2018.
4. H.B.Boboyev. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma, T., "O'zbekiston", 2017
5. R.S.Hakimov. Davkat hokimiyati tizimida parlament: nazariya va amaliyot muammolari. Monografiya, T., 2012
6. A.A.Muhammadiyev. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari. Monografiya, T., 2010